

## BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA O'QITUVCHI MIMIKASI

Ashrafova Ruxshona

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali.

Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1 - bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar oshirishda o'qituvchining o'rni qanchalik muhim ekanligi ularni atrofdagilar bilan muloqotga tayyorlashda hamda bolalarni nutqini o'stirishda qo'llaniladigan metodlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, so'z mimika, metod, ertak, hikoya.

**Abstract :** This article talks about how important the teacher's role is in the improving children's speech as well as the methods used in preparing them for communication with others and improving children's speech

**Key words:** speech, word, mime, method, tale, story.

Bolalar nutqini oshirishda ,albatta, o'qituvchining o'rni beqiyosdir.Chunki o'qituvchi ta'lif berar ekan, eng avvalo, uning nutqi chiroyligi bo'lishi kerak, ya'ni o'qituvchi har doim gapirayotgan so'ziga e'tiborli bo'lishi uni aniq , ravon hamda mimikasi orqali ham yetkaza olishi hamda tushuntira olishi kerak.

Mimika (yun-takdid)- yuz mushaklarining ifodali harakati.Insonning ma'yuslik, xursandlik , g'azab, xafalik kabi hissiyotlarini ifodalaydi. Mimika oddiy kishilarda tabiiy tarzda ro'y beradi.Teatr sahna san'atida esa aktyorlarning doimiy mashqlari asosida yuzaga keladi.Yuzga beriladigan pardoz mimikani ifodaviyligini oshiradi. Mimika aktyorning nutqi bilan hamohang bo'lib, obraz mohiyatini , qahramonlarning o'zaro munosabatlarni ochishga xizmat qiladi.Ayniqsa so'zsiz o'rnlarda sukunatni to'ldirishda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi, ayniqsa , boshlang'ich ta'lif o'qituvchisida mimika ertak, hikoyalar aytib berayotganda juda muhim hisoblanadi. Ya'ni ertak aytayotib qahramonlarni roliga kirib ularni ham yuz tuzilishi orqali, ham ohangi yordamida tasvirlab bera olishi kerak. Misol uchun, bo'rini ifoda etayotgan bo'lsa vahimali ,qo'rqinchli, dag'al ohang , tulki bo'lsa ayyorona , ayiq bo'lsa laqmaroq ohanglar orqali bayon qila olishi kerak .Shundagina bolalar o'zini xuddi shu ertakni ichida yashayotgandek his qila oladi.Hamda bu albatta, o'z o'rnida pedagogik mahoratni talab qiladi.Pedagogik mahorat - bo'lajak o'quvchilarini kasbiy mahoratlarni oshirish, takomillashtirish muammolarni o'rganadi.[11-bet]Bolalar nutqini oshirishda ko'proq ular bilan muloqotda bo'lish, suhbatlashish ham foydalidir.Ayniqsa, darsda turli xil metodlardan foydalanish , masalan, bir-birlari bilan fikr almashtirishga qaratilgan metodlardan foydalanish bolalarni juda ham ruhlantiradi va bu samarali usul hisoblanadi.Boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli xil mevalar rasmi tushirilgan tarqatmalar berib, ular haqidagi har birlari ozgina ma'lumot berib o'tishi kerak. Ya'ni ularning ta'mi, rangi, xususiyatlari, foydali tomonlari haqidadir.Shundan ham ko'rishimiz mumkinki, sodda metodlar ham bolaning so'z boyligini , so'zlarni bir-biriga bog'lashni, to'g'ri talaffuz qilishni , eng asosiysi, nutqini oshiradi, mustahkamlaydi.

Metod so'zi aslida quyidagicha [metod so'zi grekcha tadqiqot , maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi( kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. Metod-eng umumiylar ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,bolalarni nutqini oshirishda ,eng avvalo, ularni tinglash, ular bilan ko'proq muloqotda bo'lish va iloji boricha ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan so'zlarni ishlatmaslik zarurdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston milliy ensiklopideya(2000-2005) 555-bet
- 2.R.A.Mavlonova "Umumiylar pedagogika" Toshkent-Fan va texnologiyalar-2018. 11-bet
- 3.Pedagog Burhoniddin Zarnudjijy